

ISSN 3030-3370


№ 2 (5) 2024



# AYNIY VORISLARI

XALQARO ELEKTRON JURNAL  
INTERNATIONAL ELECTRONIC JOURNAL





ISSN 3030-3370

**“AYNIY VORISLARI”**

xalqaro elektron jurnal

**«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»**

международный электронный  
журнал

**“AYNIY’S SUCCESSORS”**

international electronic journal

**№ 2 (5) 2024**

## TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

*Abuzalova Mehriniso Kadirovna,  
BuxDU professori, filologiya fanlari doktori  
(O'zbekiston)*

*E-mail: [mexriniso-6590@mail.ru](mailto:mexriniso-6590@mail.ru)*

*Xalikova Mohigul Xalimjanovna,  
Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi  
kafedrasi erkin izlanuvchisi  
(O'zbekiston)*

*E-mail: [m.x.xalikova@buxdu.uz](mailto:m.x.xalikova@buxdu.uz)*

### **O'ZBEK-TURK TILLARI NUMEROLOGIK KOMPONENTLI BIRLIKLARIDA MADANIY KODNING VOQELANISHI**

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek-turk tillari numerologik komponentli birliklarida madaniy kodning voqelanishi tahlil etilgan. O'zbek-turk tillaridagi sonlar ishtirokida shakllangan qator iboralar, turg'un birikmalar, maqol, matal va aforizmlarda, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalarida raqamlar madaniy kod sifatida turli ko'chma ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilishi asoslangan.

**Tayanch so'zlar:** ibora va idiomalar, maqol, sonli madaniy kodlar, majoziy ma'no, til va madaniyat, til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlar.

**Аннотация.** В статье анализируется возникновение культурного кода в нумерологически совместимых единицах узбекско-турецких языков. Оно основано на том, что числа служат культурным кодом в ряде словосочетаний, устойчивых сочетаний, пословиц и афоризмов, образованных с участием чисел в узбекско-турецких языках, а также в образцах народного творчества.

**Ключевые слова:** выражения и идиомы, пословицы, числовые культурные коды, переносное значение, связь языка и культуры, язык и мысль.

**Abstract.** The article analyzes the emergence of a cultural code in numerologically compatible units of the Uzbek-Turkish languages. It is based on the fact that numbers serve as a cultural code in a number of phrases, set combinations, proverbs and aphorisms formed with the participation of numbers in the Uzbek-Turkish languages, as well as in examples of folk art.

**Key words:** expressions and idioms, proverbs, numerical cultural codes, figurative meaning, connection between language and culture, language and thought.

**Kirish.** So'nggi yillarda tilshunoslik bilan qator fanlar integratsiyasi mahsuli sifatida bir necha yangi tarmoqlar shakllandi. Tilshunoslik hamda madaniyatshunoslik fanlarining o'zaro birikuvini lingvokulturologiyaning taraqqiy etishi uchun asos bo'ldi desak, yanglishmaymiz. Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat kodlari olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof qilinadi [1, 78-97]. V.N.Teliyaning fikricha, madaniyat kodlari muayyan madaniy mazmunni kodlashtirish maqsadida qo'llanuvchi turli moddiy va formal vositalardan iborat ikkilamchi belgilar tizimidir [2,12]. "Madaniyat kodlari turli moddiy qobiqda — turmush realiyalari, flora hamda fauna vakillari va boshqalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Inson ongida ular umuman bilimlar, tasavvurlar, assotsiatsiyalar ko'rinishida aks etadi" [3,174].

Madaniy kodlar haqidagi umumlashma, obrazli ta'rif V.V. Krasnixga tegishli. Olim madaniy kodlarni borliqqa tashlangan to'r sifatida tasavvur etadi. "Tafakkurimizga xos bu "to'r" bizni o'rab turgan olamni qismlarga ajratadi, tartiblashtiradi, shaklga soladi hamda baholaydi" [4,6]. D.Xudoyberganova madaniyat kodini insoniyatning arxetipik tasavvurlariga muvofiq keluvchi, o'zida olam haqidagi tasavvurlarni namoyon etuvchi tushunchalar va ularning lisoniy shakllari sifatida ta'riflaydi [5,15].

Demak, yuqoridagi madaniy kod haqidagi xulosalarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, madaniy kod o'zida milliy-madaniy, ma'rifiy, qadriyat va me'yorlar, urf-odatlar hamda milliy-mental

xususiyatlarni o'zida shartli ravishda aks ettiruvchi, ramziy va shartli ifodalar tarzida ifodalovchi moddiy belgilar tizimidir.

**Asosiy qism.** Ilmiy adabiyotlarda madaniyat kodlarining turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod, ma'naviy kod, antromorf kod, fazoviy kod, urushga doir kod, tibbiy kod, me'moriy kod, sport kodi, geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi, mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kodi kabilar qayd etilgan [6,334-339]. Lingvomadaniyatshunoslik obyekti sanalgan madaniy kodlar ma'naviy, madaniy, milliy-mental til xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Lingvomadaniyatshunoslikning eng keng tarqalgan kod turlaridan biri bu: somatik koddir. Somatik kod – bevosita inson tanasi a'zolari bilan bog'liq bo'lib, tananing, umuman, uning qismlari ularga xos bo'lgan sifatlar, miqdoriy belgilar, jismoniy belgilar, aqliy-hissiy belgilar, imo-ishoralar – barchasi qamrab olinadi, bunda inson tanasi a'zolari ko'chma ma'noda qo'llaniladi: *qo'li uzun, qo'li shirin, tog'ning boshi, yo'lning boshi, oyoq osti bo'lmoq, yuzi chidamadi, yuziga oyoq qo'ymoq, tilga olmoq, tili kalimaga kelmadi* kabi birikmalarda inson tana a'zolari turli semalarda qo'llanmoqda. Somatik kodlar bevosita inson ta'na a'zolari yordamida milliy xususiyatlarni o'zida jamlagan holda denotativ ma'noda qo'llanuvchi frazeologik birliklarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotchi I. Bo'riyev madaniy kodlarni tahlil etar ekan, ularning yana bir qancha turlariga misollar bilan izoh berib o'tadi. Jumladan, predmetli kod atrofida predmetlar (narsa-buyumlar) bilan bog'liq kodlar bo'lib, ular birinchi navbatda millat turmushida keng o'rinishgan, hayotning ajralmas qismiga aylangan predmetlar bilan ifodalanadi. Bunda predmetlarning hajmi (katta-kichikligi), miqdori (kam yoki ko'pligi), nima maqsadda ishlatilishi kabi ma'nolar ramziy ma'noda qo'llanilib kodlashtiriladi. Masalan: *to'nini teskari kiymoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, xamirdan qil sug'urganday, tomdan tarasha tushganday, ketmoni uchmoq, ignadek sanchilmoq, boshi xumday, no'xatdek kichkina* kabi birliklar o'zbek lingvomadaniyatiga mansub kishilarning ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda vosita vazifasini bajaradi. Madaniyat kodlaridan biri bo'lgan ma'naviy kod yaxshi-yomon, chiroqli xunuk, baland-past kabi madaniy oppozitsiyalarni, xalqning axloqiy yoki diniy qadriyatlarini aks ettiruvchi kod hisoblanadi. Ko'pincha predmetli kodlar ma'naviy kodlar bilan uyg'unlashadi. Masalan: *Uying tor bo'lsa ham, ko'ngling keng bo'lsin; Qalovini topsang, qor yog'ar; O'ylamay qilingan ish, Boshga keltirar tashvish.*

Hayvonlar yoki o'simliklar bilan bog'liq kodlar ham mavjud bo'lib ular biomorf kod deb nomlanadi. D. Tosheva o'z izlanishlarida o'zbek tilidagi frazemalarda eng faol qo'llanilgan zoonimlar sirasiga it, ilon, ot, eshak, qush, quyon, tuya kabilarni kiritish mumkinligini aytib o'tgan [7] hamda ularning turli harakatlari, xususiyatlari bilan inson tabiatiga xos bo'lgan jihatlar o'rtasida o'xshashlik kuzatilishi, biomorf kod orqali insoniy fazilatlar, nuqsonlarni aks ettirish mumkinligi aytilib misollarda izohlangan. Masalan: *baquvvatlik — arslondek yigit, ayiqday kuchli; ayyorlik — tulkiday ayyor, ilondek ichiga kirib olmoq, o'rgimchakdek to'riga ilintirmoq; mehnatkashlik — eshakdek ishlamoq, chumoliday mehnatkash, itday ishlamoq* va shu kabilar.

Raqamlar kundalik hayotda tez-tez ishlatiladigan va turli fanlarni o'rganishda ham qo'llaniladigan so'zlar maydonidir. Matematika, falsafa, jamiyatshunoslik, astronomiya, tilshunoslik kabi fanlar ko'p yillar davomida raqamlar bilan ish ko'radi, unga oid tegishli tadqiqotlar olib boradi. Raqamlar odamlarning mavjudligi kabi qadimgi hodisa bo'lib, sonlar ko'plab sohalar obyekti ekanligi orqali o'zining ko'p qirraliligini isbotladi. Shunga ko'ra, raqamlar tilshunoslik hamda madaniyatshunoslik umumlashmasi bo'lgan lingvokulturologiyaning ham o'rganish obyekti hisoblanadi. Chunki o'zbek tilida raqamlar orqali shakllangan iboralar, maqol, matal, hikmatli so'zlardagi sonlar lingvomadaniy kodlar sifatida xalqning uzoq yillik milliy-etnik jihatlarini o'zida ifodalab keladi.

O'rganishlarimiz natijasi o'laroq, yuqorida sanalgan madaniy kodlarning bir turi sifatida raqamli kodlarni ham qayd etish mumkin, ya'ni lingvomadaniyatshunoslikka raqamli kod tushunchasini kiritish foydadan xoli bo'lmaydi va madaniy kodlar sirasi boyiydi. O'zbek tilidagi sonlar ishtirokida shakllangan qator iboralar, turg'un birikmalar, maqol, matal va aforizmlarda, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari, ertaklarda raqamlar madaniy kod sifatida turli ko'chma ma'noni ifodalash uchun xizmat qilgan. Jumladan, o'zbek xalq ertaklarida sonlar orqali turli urf-odatlar, an'analar, xalqimizning yashash tarzi, milliy-mental xususiyatlariga ishora qilinadi. Raqamlarning ko'chma ma'noda turli semalarni ifodalab kelishi lingvokulturologiyaning obyekti sifatida madaniy kod tarzida voqelanadi.

**Natijalar va muhokama.** O‘zbek xalq ertaklarida uch soni bilan bo‘g‘liq ertak davomida jarayonning “uch” marotaba takrorlanishi uning mazmunini kengaytirish, o‘quvchiga tushunilishi yanada aniqroq bo‘lishida ko‘maklashadi. “Uch” bilan bo‘g‘liq quyidagi holatlar uchraydi:

1. Ertaklarda qahramon oldidan uch yo‘l chiqishi. Masalan, kampir bolaga yo‘lni tushuntirishni boshladi. *“Sening yo‘lingdan uch yo‘l chiqadi. Ikki yo‘l xatarli, faqat bir yo‘ldan sen mashaqqatsiz manzilingga yetishing mumkin”*, – dedi.

2. Ertaklarda, asosan, uch o‘g‘il yoki uch qiz farzandning bo‘lishi. Masalan, *“Bor ekan-u yo‘q ekan, bir zamonda bir kishi boy ham emas, kambag‘al ham emas ekan. Uning uchta o‘g‘li bor ekan, uchovi ham o‘qigan, oq qorani tanigan, yuzlari oyday, o‘zlari toyday yomon joyda yurmagan, yomon bilan yurmagan ekanlar”* (“Uch og‘a-ini” ertagidan).

3. Ertaklarda uch og‘a-ini safarga chiqishlari. Masalan, *“Shu odam 3 og‘liga nasihat qilib safar anjomlari shaylab, ularni safarga jo‘natibdi”* (“Uch og‘a-ini” ertagidan).

4. Ertaklarda uchraydigan uch boshli ajdaholar. Masalan, savol-javob so‘ngida uch boshli ajdaho kenja shahzodaga shart qo‘yadi: *“...Falon mamlakatda bir podshohning qizi bor. Shu qizni qirq kun ichida menga keltirib berasan, shu vaqt ichida keltirmasang, o‘zingni yeyman”* (“Qirq kuyov” ertagidan).

5. Ertaklarda ota o‘g‘illariga uch narsani uqtiradi: Masalan, *“1.To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz. 2. Maqtanchiq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz. 3. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo‘lmaysiz”* (“Uch og‘a-ini botirlar” ertagidan).

Bundan tashqari, o‘zbek xalq ertaklarida quyidagi raqamlar ham o‘ziga xos madaniy kod sifatida gavdalanadi:

Ertaklardagi to‘rt raqami dunyo tomonlarining ramzi bo‘lib tasvirlanadi. Masalan, *“erta bilan qarasar, saroyning to‘rt tomonini to‘rt ajdarho to‘tib yotibdi”*, *“kaniz qizlar bog‘ni tomosha qilgani to‘rt tomonga tarqab ketgan edi”*, *“Podsho ertasiga Ermana merganni qidirib, to‘rt tomonga odam yuboribdi”*.

O‘zbek xalq ertaklarida tasvirlangan epik makon to‘rt burchakli yoki to‘rt tomonli strukturaga ega. Bu avvalo malikalar taxti, otxonalar va uylar tasvirida yaqqol ko‘rinadi. “Bulbuligo‘yo” ertagida kenja teshikdan boshini chiqarib qarasa, otxonaning to‘rt burchagida to‘rtta oltin qoziqqa bog‘loqliq ot turibdi. Parilar mamlakatining tuzilishi ham to‘rtga asoslangan: *“Shahzoda qarasa, bir ajoyib bo‘ston, bulbullar sayragan, anjir, shaftolilar pishib, yerga to‘kilgan. Bo‘stonning to‘rt burchagida to‘rt oltin daraxt, zar ko‘rpachalar solig‘liq, to‘rt tarafda qator hujralar”*[8,18].

Ertaklarimizda ko‘p qo‘llaniladigan “sehrli” raqamlardan biri qirqdir. Ertak qahramonlari qirq kecha-yu qirq kunduz yo‘l yurib, qirq boshli ajdarhoni o‘ldirib, uning qirq hujrali makonini qo‘lga kiritadilar; Shoh ustaga qirq xonali muhtasham saroyini qurib bitkazishi uchun qirq kun muhlat beradi; Jang ham qirq kecha-yu qirq kunduz davom etadi; Bahodirning qilichi qirq gaz cho‘zilsa, parining tilla kokili qirq quloq bo‘ladi va hokazolar. Dostonlarda qirq kecha-kunduz to‘y qilish, qirq kecha-kunduz yo‘l yurish, qirq kun muhlat kabi motivlar ham mavjud.

O‘zbek xalq ertaklarida bo‘lgani singari turk xalq ertaklari va rivoyatlarida ham raqamlar muayyan madaniy kodga ishora qilishini ko‘rish mumkin. Og‘zaki rivoyat an‘analari va xalq adabiyotining bir turi bo‘lgan ertaklarda rivoyatchi ertakning turli qismlarining soni va rangini bildiruvchi vaqt va joy bilan bog‘liq shakllarni qo‘shish orqali ifodani kuchaytirishga harakat qiladi. Saim Sakaoğlu “Gümüşhane ve Bayburt masallari” motiv sharhlari kitobida formulali raqamlarga e‘tibor qaratdi va qirq raqami ishtirok etgan joylarni, ular nima bilan bog‘liqligini aniqladi. Vaqt bilan bog‘liq bo‘lganlar: 40 kun, 40 kecha, 40 yil (40 gün, 40 gece, 40 yıl); odamlar bilan bog‘liq bo‘lganlar: 40 haromi, 40 vazir, 40 shahzoda, 40 qiz, 40 kanizak (40 harami, 40 vezir, 40 şehzade, 40 kız, 40 cariye); pul bilan bog‘liq: 40 oltin, 40 lira, 40 beshlik (40 altın, 40 lira, 40 beşlik); joyga tegishli bo‘lganlar: 40 xona, 40 ko‘z, 40 qadamlar (40 oda, 40 göze, 40 basamak); tovarlar bilan bog‘liq bo‘lganlar: 40 kofe, 40 kalit (40 cezve, 40 anahtar) [9,263].

O‘zbek va turk tili qardosh til hisoblanadi. Geneologik jihatdan bir bobo tilga borib taqalishi bilan bir qatorda aksariyat an‘analari, urf-odatlar jihatdan ham umumiylikka ega. O‘zbek xalq ertaklarida raqamlar bilan ifodalangan madaniy kodlar turk xalq ertaklarida ham mavjud. Ikki qardosh xalq ertaklarida uchraydigan madaniy kodlar odamlarning kundalik turmushida qiladigan ko‘plab amaliyotlari orqali hayotga kiradi. Ikki xalq madaniyat, urf-odat, an‘analari jihatdan ko‘plab umumiylikka ega bo‘lgani

sababli xalq ogʻzaki ijodi namunalarida uchraydigan motivlar, qolaversa, madaniy kodlar ham bir-biriga juda yaqin. Jumladan, oʻzbek tilida turli birliklarda uchraydigan 3, 7, 9, 20, 40, 41, 99 sonlari sehrli raqamlar deya eʼtirof etiladi. Buning asosiy sababi esa bu raqamlarda xalqning milliy, diniy, afsonaviy qarashlari oʻz ifodasini topadi. Xuddi shunday turk xalqlari tomonidan ham bu raqamlar sehrli, mistik kuchga ega sonlar deya, talqin qilinadi: “Xalq eʼtiqodidagi raqamlarning yana bir muhim oʻrni ularning turli shakllarda qoʻllanilishidir. Sehrgarlikda raqamlar katta rol oʻynaydi. Sehrli amaliyotda maʼlum miqdordagi raqamlarga eʼtibor bermaslik muvaffaqiyatsizlikka sabab boʻladi. Turli xil qiymatdagi raqamlarning deyarli har biri turli irim va sehrli amaliyotga xosdir. Masalan, “uch marta tupurish”, “chorrahaga koʻmish”, “yetti uydan ip yigʻish”, “qirq kun yuvinish” (“üç kere ükürmek”, “dört yol ağzına gömmek”, “yedi evden iplik toplamak”, “kırk gün yıkamak”)... Umuman olganda, 3, 7, 9, 40, 41, 99 sehrli va mistik kuchga egaligiga ishonishadi”[10,147-148] (1- rasmga qarang):



“3-rasm.”

Oʻzbek va turk tillarida “sehrli raqamlar”ning ifodalanishi

Madaniyat avlodlar orasidagi ijtimoiy qiymatni yetkazadigan xotiraga oʻxshaydi. Bir xil ildizdan boʻlgan jamiyatlar turli sabablarga koʻra turli joylarda yashaganidek, oʻz madaniyatidagi umumiy izlarni saqlaydi. Madaniyatdagi turli xil elementlar asrlar davomida oʻzgarishlarga duch kelgan boʻlsa ham, ular jamiyat xotirasida yashashda davom etmoqdalar. Maqollar bu nuqtayi nazardan oʻzbek va turk dunyosi uchun muhimdir.

Raqamlar va maqollar insoniyat tarixi singari qadimgi tushunchalardandir. Raqamlar va maqollar tasodifiy emas, balki maʼlum bir maqsadga, nutqqa xizmat qilish uchun yaratilgan. Maqollardagi raqamlar ham tasodifiy emas va ular asosida aniq maqsadga ega. Maqollar tildagi amaliy foydadan tashqari, madaniyatni saqlash va uzatish kabi muhim vazifalarni ham bajaradi. Hikmatlar, maqol, matallarda bir nechta madaniyat elementlari uygʻunlashadi. Ushbu elementlardan biri raqamlardir.

Oʻzbek va turk maqollaridagi raqamlar oddiy matematik elementlar emas. Har bir raqam semantik maydonga ega va bu madaniyatda boʻlgan odamlar tomonidan maʼlum boʻlgan qiymat. Maqollardagi raqamlarning maʼnolari asrlar davomida toʻplanganligini koʻrsatadigan muhim dalildir.

Turk tilida maqollar yaratishda qaysi raqamlar birgalikda ishlatilishi qator olimlar tomonidan tadqiqot mavzusi sifatida oʻrganilgan. Maʼlumotlarga koʻra, maqollarda mavjud boʻlgan koʻp sonli raqamlar (bir, ikki, uch, qirq, yetmish, yuz, ming) boshqa raqamlar bilan sinxronlikni tashkil qiladi. Maqollarda raqamlar birikmasi quyidagi xususiyatlarni oʻzida mujassamlashtiradi:

- uygʻunlikni yaratish, jozibadorlikni taʼminlash;
- samarali ifoda yaratish (analogiya, metafora, mubolagʻa va b.);
- raqamlar ketma-ketligidan foydalanish;
- madaniy kodlarga murojaat qilish;
- falsafiy/soʻfiy maqsadlarga moslashtirish va hokazo.

Turk madaniyati tarixida raqamlarning kuchi va taʼsiri maqollarda ham oʻz ifodasini topgan\*.

O'zbek va turk tilidagi maqollarda raqamli madaniy kodlar bir-biriga juda yaqin ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin:

*Ikki qo'chqor kallasi bir qozonda qaynamas – Bir ocakta iki kazan kaynamaz; Bitta tirraqi buz oq bir to'p podani buzadi – Bir korkak bir orduyu bozar.*

O'zbek va turk tilida “bir” umumiy ma'noni ifodalovchi sonlar ishtirokida hosil qilingan maqollarning turli variantlarini uchratish mumkin. Masalan, “*Bir gul bilan bahor bo'lmas*”, “*Bir qarg'a bilan qish kelmas*”, “*Bir qaldirg'och bilan yoz bo'lmas, bir bulut bilan kuz bo'lmas*” maqollari turkiy xalqlar orasida ham qo'llanishi ikki xalqning bir umumiy etnogenezga borib taqalishidan dalolatdir:

*Bir çeçekmen caz bolmas.*

*Bir karga birle kış gelmes.*

*Bir gülden bahar olmaz* [11,88].

O'zbek tilidagi “*Bir qo'ydan ikki teri shilinmas*” maqoli turklarda quyidagi shakllarda qo'llanadi:

*Bir koydan eki teri çıkmas.*

*Bir tilkü terisin ikile soymas.*

*Bir koyundan iki deri soyulmaz.*

*Bir koy eki soyulmaz.*

*Bir koyundan iki deri çıkmaz.*

Shuningdek, xalqimiz orasida “mehmonning izzati uch kun” iborasi ko'p qo'llanadi. Bu iboraga mos ravishda dono ajdodlarimizdan bizgacha “*Yaxshi mehmon – uch kunlik*”, “*Qo'noqning kuni – uch, uchdan keyin ko'ch*” [12,214] maqollari yetib kelgan. Xuddi shu mazmundagi maqollar qardosh turk xalqida ham mavjud bo'lib, ularda ham uch raqami madaniy kod sifatida parema tarkibida xalqning uzoq yillik madaniyati, an'alarini o'zida mujassamlashtirish uchun xizmat qilgan:

*Kunak üç kön kunak, andan arı muynak.*

*Mehman üç küngeçe hesel, üç künden ötse sesir* [13,223-241].

Ajdodlarimiz tomonidan “*Beshikdagi bola besh turlanar*” yoki “*Bola yettiga kurguncha yetmish turlanadi*” maqollari turklarda quyidagi shakllarda uchraydi:

*Çocuk beşikte beş kez değişir.*

*Bala besikte beş tûleydi.*

*Beşikteki bala beş tûrlenir.*

*Bala besikte bes tûleydi.*

*Besiktegi bes tûrlener.*

Jamiyatning son tendensiyalari va ularning afzalliklari, ayniqsa, son haqida yaratilgan tadqiqotlar mavjudligida, qolaversa, maqollar, iboralar, hikmatli so'zlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir jamiyat ko'pincha kundalik hayotda o'zi uchun muhim bo'lgan raqamlarga joy beradi. Raqamlardan foydalanish chastotasi madaniyatlarga qarab farq qilishi mumkin, chunki raqamlar yuqorida aytganimizdek, faqat matematika sohasida qo'llanilmaydi. Turk tilshunosligida raqamlar orqali shakllangan madaniy kodlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar talaygina. Turkologlar tomonidan turk tilida har bir raqam bilan bog'liq maqollar, shuningdek, maqollar tarkibida qo'llangan sonlarning sinxronligi ham alohida o'rganilgan.

Hadra Kubra Erkinoy Tamtami tomonidan turk xalq maqollaridagi raqamlar sinxroniyasi “Turk maqollarida raqamlarning joylashishi” [14,842-858] nomli maqolada batafsil yoritilgan. Maqolada muallif turk tilida maqollarda ishtirok etgan raqamlar uyg'unligini har bir son misolida alohida maqollar bilan tasniflab beradi. Bu bilan olim turk xalq maqollarining shaklanishida numerologik qiymatning ahamiyati, shu bilan bir qatorda, raqamlar ham madaniy kod sifatida namoyon bo'la olishini turk paremalari misolida isbotlagan desak, yanglishmaymiz. O'zbek va turk tillari bir umumiy til oilasiga mansubligi, ikki xalqning diniy, milliy dunyoqarashlari juda yaqinligi xalq maqollarida ham o'z ifodasini topgan.

**Xulosa.** Umuman olganda, raqamli madaniy kodlar nafaqat maqollarda, balki kishilarning kundalik turmush tarzida qo'llanadigan iboralardan tortib xalqimizning uzoq yillik hayot tajribasi mahsuli bo'lmish xalq og'zaki ijodi namunalarida ham aks etganligi sonlarni lingvokulturologiya obyekti sifatida alohida tadqiq etish zarurligini yana bir karra isbotlaydi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. – №4. (22). – С. 78-97.
2. Телия В.Н. Большой фразеологический словарь русского языка. – М.: АСТ-ПРЕСС КНИГА, 2006. – 764 с.
3. Ковшова М. Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – 456 с.
4. Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору) //Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М.: МАКС Пресс, 2001. – 164 с.
5. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini //O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2019. – №3. – B. 15-22.
6. Bo‘riyev I. Lingvomadaniy kodlar va ularning turlari haqida // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021. – № 1 (8). – B. 334-339.
7. Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol, fan. bo‘yicha falsafa dok. diss. – T., 2017. – 152 b.
8. Tuychiyeva R. Adabiyotda sehrli raqamlarning ifodalanishi. Bitiruv malakaviy ishi. – Farg‘ona, 2013. – 67 b.
9. Saim Sakaoğlu. Gümüşhane ve Bayburt masalları. – Ankara: Akçağ Yayınları. 2002. – 263 s.
10. Sedat Veyis Örnek. 100 Soruda İlkelerde Din Büyü Sanat Efsane. – İstanbul: Gerçek Yayınevi, 2000. –196 s.
11. Ömer Asım Aksoy. Atasözleri Ve Deyimler Sözlüğü 2, 1993. Cilt:2. – 88 s.
12. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001. – Б. 214. – 448 б.
13. Erkan Hirik. Türk dünyasi atasözlerinde sayılar ve anlam alanlari // International Journal of Languages' Education and Teaching. – Volume 5, Issue 1. – 2017. – P. 223-241.
14. Hadra Kübra Erkinay Tamtamiş. Türkiye türkçesi atasözlerinde sayı eşdizimliliği. Folklor Akademi Dergisi, 2022. Cilt:5, Sayı:3. – S. 842 – 858.

|                                              |                                                                                                            |    |
|----------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>13. Berdiyeva Dilnavoz Orif qizi</b>      | Zamonaviy o'zbek shoiralari ijodida bag'ishlov va maktub-she'rlar                                          | 68 |
| <b>14. Fozilova O'g'iloy Fayoz qizi</b>      | Navruz holiday views in Bukhara region                                                                     | 72 |
| <b>15. Norova Mekhri Bakhtiyorovna</b>       | Color symbols in modern Uzbek poetry                                                                       | 76 |
| <b>16. Teshayeva Gulnoza Jamshidovna</b>     | Adabiy parallel janri metodologiyasi xususida                                                              | 81 |
| <b>17. Xudoyorova Nafisa Baxtiyor qizi</b>   | O'zbek ma'rifatparvarligi adabiyotining shakllanish omillari va o'ziga xos xususiyatlari                   | 86 |
| <b>18. Egamberdiyeva Gulchiroy Esan qizi</b> | An'ana va vorisiylikning Oydin Hojiyeva she'riyatidagi ifodasi                                             | 91 |
| <b>19. Mukhtorova Maftuna Ilkhom kizi</b>    | Islamic Perspectives on Joseph Conrad's "Heart of darkness" and Rudyard Kipling's "The white man's burden" | 96 |

### TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

|                                                                          |                                                                                      |     |
|--------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>20. Abuzalova Mehriniso Kadirovna, Xalikova Mohigul Xalimdjanovna</b> | O'zbek-turk tillari numerologik komponentli birliklarida madaniy kodning voqelanishi | 100 |
| <b>21. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna, Asadova Shahlo Akmal qizi</b>      | Graduonimiya hodisasi va uning tadqiqi xususida                                      | 106 |
| <b>22. Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna</b>                               | Nutqiy etiketning lingvistik tabiati                                                 | 111 |
| <b>23. Козиева Икбол Комилжоновна</b>                                    | Роль и место ономастики в ряду других научных дисциплин                              | 116 |
| <b>24. Babayarov Maxmud Xamitovich</b>                                   | O'zbek sport sharhlovchisi Axbor Imomxo'jayev nutqining lingvistik tahlili           | 122 |
| <b>RETRO</b>                                                             | Беназир устозимиздан тухфа                                                           | 126 |
| <b>QUTLOV</b>                                                            |                                                                                      | 130 |
| <b>FILOLOGIYA ILMIDAGI YANGI QADAMLAR</b>                                |                                                                                      | 134 |